

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA XORIJ TILINI  
O'RGGATISH METODIKASI**

***Usmonova Diyora Baxtiyorovna***

***dusmonova747@gmail.com***

**+99899 013 02 67**

***Samarqand davlat chet tillar institut Ingliz 2 fakulteti 2-kurs talabasi***

***Annotatsiya:*** Hozirgi kunda til o'rghanish talabi nafaqat yuqori sinf o'quvchilariga balki boshlang'ich sinf bolalariga ham qo'yilmoqda. Yosh avlodga ikkinchi til o'rnatish bir o'qituvchining unga beradigan eng katta sovg'asidir va yangi tilni qay uslubda bolaga singdirish pedagogning o'zigagina bog'liq. Ushbu maqola esa ananaviy usullardan holi bo'lgan metodlar asosida 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilariga xorijiy tillarni o'rnatishning zamonaviy hamda samarali usullarini ko'rib chiqadi.

***Kalit so'zlar:*** boshlang'ich sinflar, silent metodikasi, uslub, rolli o'yinlar, ikkinchi til.

Bir nechta tillarni bilish nafaqat o'qish va ishda balki ijtimoiy, siyosiy hayotda ko'pgina eshiklarni ochib beradi. Chet tilini boshlang'ich maktablardan boshlash esa ko'pgina afzalliklar olib keladi. Misol uchun 1980-yilda Luiziana shtatida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra har kuni chet til darslari o'rnatilgan boshlang'ich sinf o'quvchilari irqi, jinsi, bilim darajasidan qat'iy nazar 3-4-5-sinf o'quvchilaridan Luziana Basic Skill testida ustun bo'lismagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik o'quvchilar uchun cheklangan diqqat doirasi ular uzoq vaqt davomida bir xil ishni qilishiga yo'l qo'ymaydi.. Faoliyatning tez-tez o'zgarishi muvaffaqiyatli darslarning shartlaridan biridir. Har bir narsani hisoblash oddiy – bir bolalarning yoshiga 5 daqiqa qo'shamiz - bu bolaning maksimal konsentratsiyasi vaqt. Bular. 5-6 yoshli bolalar taxminan 10 daqiqa davomida xuddi shunday qilishlari mumkin. Bu boshqa yo'l bilan ishlamaydi:

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

bolalar qilayotgan ishlaridan zeriksa, ularni tinchlantirish qiyin bo'ladi [2;3]. Yangi va innovatsion o'qitish metodlari esa bugungi zamon talabi ekanligi hammaga ma'lum. Ammo ulardan qay biri bola uchun qiziqarli? Quyidagi 5ta metodlar esa bolalarni zeriktirmay ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda dars o'tishga yordam beradi.

**1. Rolli o'yinlar va dialoglar.** Hammamiz bilamizki, bolalar kuzatishni va atrofdagilarni tanqid qilishni yaxshi ko'rishadi. Rolli o'yinlar va dialoglar o'quvchiga kundalik hayotda yangi tilda gapira olish imkonini beradi. Kichik guruhlarda rol o'ynash o'quvchining muloqot qilish hamda o'ziga ishonch bilan ushbu tilni doimiy qo'llashiga yordam beradi.

**2. Silent metodikasi.** Bu usul ayni yosh bolalar uchun mo'ljallangan. chunki bu uslubda o'qituvchi o'rganuvchiga notanish va yangi so'zlarni iloji boricha kamroq yoki umuman ishlatmasligi lozim. Agarda o'quvchi "me glad" desa ham uni urushmaslik joiz. Tajribalarga ko'ra bola o'rta maktabga o'tgunicha yangi tilde mukammal gaplasha oladi.

**3. Qo'shiqlar orqali.** Yosh-u qari birdek qo'shiqlarni birdek sevib eshitadi. nega buni darsda qo'llamaslik kerak? Qo'shiq yordamida sonlarni , harflarni, yangi so'zlarni osonlik bilan yodlatish mumkin. Bundan tashqari bu kichik til o'rganuvchilarining ravon hamda chiroyli talaffuzga ega bo'lishiga ko'mak beradi.

**4. Juftliklarda ishlash.** Bolalarni juftlikda o'qish,yozish,gapirish mashg'ulotlarida birga ishlashga o'rgatish ularga bir-birini qo'llash va bir-birga o'rgatish imkonini bergen bo'lamiz. Zero " bola tilini bola bola tushunadi" deyishadi dono xalqimiz.

**5. Hikoyalar yordamida.** Bola ilk yoshidanoq rasmli hikoyalarni yaxshi ko'rishadi. Chet tilidagi ertak rang-barang rasmlari hamda oz so'larni o'z ichiga olgan bo'lsa , ular gaplarni tushunmasada rasmga qarab ertak qahramonlarning harakatlari orqali so'zlarni tushunishga harakat qiladi. O'qtuvchi uni bolaga o'qib berishi uni tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar til ko'nikmalarini rivojlantirish bosqichlari:

Ta`limni boshlashdan oldin siz ham farzandingiz kabi bu tilga qiziqish  
Til o`rgatish uchun yaxshi kitob topish  
Farzandingiz o`rganayotgan tilga aloqador ertak yoki multfilm tomosha  
qildirish va manosini tushuntirib berish.

Bolalar tez charchashadi shuning unchun mashg`ulot jarayoni 30-40 minutdan oshmasligi

Dars jarayonida o`yin metodikasidan foydalanish  
Mashg`ulot davomida bolani to`g`ri javobi uchun rag`batlantirib borish  
Mavzuni iloji boricha tik turib emas gilamda bolalar bilan birga o`tirib  
tushuntirish.[4; 3]

Tilshunos olim Teylording fikricha, hamma uchun eng yaxshi uslub mavjud emas, hech qaysi bir uslub boshqa biridan ustun kelmaydi. Shu bois til o`rgatuvchi o`ziga , o'quvchilariga, ularning bilim darajasiga mos ravishda samarali , qiziqarli, metodlardan foydalanib ta'lif berishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Zubaydova N.N "The teaching of English for specific purposes" 2019 yil.
2. Romanova L.A “Ingliz tilini o`qitish metodikasi”2022 yil
3. Chenxu Zhang “Proceedings of the 2021 International Conference on Social Development and Media Communication” (SDMC 2021)
4. Jumaniyozova.H “ BOLALARGA TIL O`RGATISH METODIKASI” Fled.uz